

**SA'DUDDIN TAFTAZONIYNING "SHARH AL-AQOID" ASARIDA
"ISHBOSHILARGA ITOAT" MASALASI JAMIYAT BARQARORLIGINI
TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA**

Norqobilov Mirzaqul Xidirovich

Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

+99891-336-90-40, norkobilov.m@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada Sa'duddin Taftazoniyning "Sharh al-aqid" asarida ta'kidlangan ayrim ijtimoiy holatlar naqliy va aqliy dalillar asosida yoritilgan. Xususan, ishboshilar va ularga bo'ysunish holatidagilar o'rtasidagi munosabatning qiyosiy tahlili tarixiy kontekst hamda bugungi kun nuqtai nazaridan tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: *Ishboshi, naqliy va aqliy dalil, itoat, kalom ilmi, tarixiy kontekst, ijtimoiy voqelik, ijtimoiy ixtilof, ob'ektiv ijtimoiy mezon, ijtimoiy qatlam, ijtimoiy hayot barqarorligi.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе повествовательной и умственной аргументации освещаются некоторые социальные ситуации, указанные в произведении Саъдуддина Тафтазани "Шарх аль-акаид". В частности, исследуются отношения между «ишбоши» (руководящими работой) и ситуацией подчинения им, также делается сравнительный анализ с сегодняшней точки зрения и исторического контекста.

Ключевые слова: *Ишбоши (руководящий работой), повествовательная и умственная аргументация, послушание, наука калам, исторический контекст, социальная реальность, социальный конфликт, объективный социальный критерий, социальный слой, стабильность общественной жизни.*

ABSTRACT

This article, on the basis of narrative and mental argumentation, highlights some of the social situations indicated in the work of Saduddin Taftazani "Sharh al-aqid". In particular, the relationship between "ishboshi" (leaders of work) and the situation of subordination to them is examined, and a comparative analysis is made from today's point of view and historical context.

Keywords: *Ishboshi (supervisor), narrative and mental argumentation, obedience, science of kalam, historical context, social reality, social conflict, objective social criterion, social stratum, stability of social life.*

KIRISH

Ijtimoiy-tarixiy davr kontekstida mutafakkirlar tomonidan yaratilgan g'oyalarni o'rganish, ularning falsafiy bilimlarini ilmiy-nazariy tadqiq qilish jamiyatning, qolaversa, insoniyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda ma'naviyat va ma'rifat sohasiga alohida e'tibor qaratilishi natijasida buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy merosini o'rganish, tadqiq etish, xususan, davlat hamda jamiyat hayotida paydo bo'layotgan turli muammolar yechimida samarali mexanizm vazifasini bajaradi.

Ma'lumki, davlat tomonidan o'rnatilgan tartib-qoidalarga to'g'ri va to'liq hamda majburiyatni his qilgan holda amal qilish har bir shaxsning fuqarolik burchi hisoblanadi. Bu masala tarixiy davr kontekstida sayqallanib kelgan ijtimoiy voqelik bo'lib, adolatli davlat boshlig'iga itoat qilish, uning buyruqlarini ijrosida yelkadosh bo'lishlik Sharq davlatchilik tendensiyalaridan ma'lum va mashhurdir. Xalq orasida «Podsho amri vojib» degan naql davrlar osha o'z ahamiyatini yo'qotmagan ob'ektiv mezon hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotida yuz bergan yuqoridagi jihatlarni o'z davrida islom ma'rifati va yuksak ratsional tafakkur uyg'unligida asoslab bergan buyuk mutafakkir Sa'duddin Taftazoniyning konseptual g'oyalari bugungi kun nuqtai nazaridan juda ahamiyatlidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tarixiy davr kontekstida yaratilgan bo'lsada, bugungi kun ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi masalalar yechimida ahamiyatli bo'lgan va sharqona demokratiya talablarini o'zida jamlagan Taftazoniyning ilmiy g'oyalari yuksak taraqqiy etgan fuqarolik jamiyatini barpo etishda qimmatli manbalar qatorida tadqiq qilinadi. Shu jihatdan olganda, Abu Xafs Nasafiyning «Aqoid» asari va mazkur kitobning sharhi sifatida dunyoga kelgan Sa'duddin Taftazoniyning «Sharh al-aqoid» asari islom olamida kalom ilmi borasidagi eng mashhur kitoblardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu manba strukturaviy jihatdan kalom falsafasiga oid bir necha mavzularni qamrab oladi. Jumladan, Abu Xafs Nasafiy tomonidan yozilgan «sultonga qarshi bosh ko'tarib chiqilmaydi» rukni ostidagi mavzuda quyidagi jumlar keltiriladi.

[الإمام لا ينعزل بالفسق]

ولا ينعزل الإمام بالفسق، أي الخروج عن طاعة الله تعالى، والجور أي الظلم على عباد الله تعالى؛ لأنه قد ظهر الفسق، وانتشر الجور من الأئمة والأمراء بعد الخلفاء الراشدين، والسلف كانوا ينقادون لهم، ويقيمون الجمع والأعياد بإذنتهم، ولا يرون الخروج عليهم؛ ولأن العصمة ليست بشرط الإمامة ابتداءً، فبقاءً أولى.

Ma'nosi:

«Sunniylik e'tiqodi va xanafiy mazhabi ulamolari ixtiyor etgan so'zlariga ko'ra, ishboshilarga qarshi chiqilmaydi, agarda ularda fosiqlik alomatlari va raiyatga nisbatan zulm sodir bo'lgan bo'lsa ham, ularga ergashgan holda orqalaridan turib jamoat namozlari va iyd namozlari o'qilaveradi. Bu masala yuzasidan oldin o'tgan solih ulamolar ham xuddi shunday fikrda bo'lishgan. Faqatgina xavorijlar firqasi bu fikrga qarshi chiqishgan»¹.

Yuqoridagi holatda mutafakkir Nasafiy so'zlari ilmiy uslubda yuksak mahorat bilan ifodalanganligini ko'rish mumkin. Huquqiy (fiqhiy) masalalar qisqa va lo'nda, hamma uchun tushunarli ixcham, rasmiyatchilik va badiiylikdan holi tarzda yozilgan. Aqliy va naqliy dalillar keltirilmagan. Bu esa, normativ qonun kuchiga ega bo'lgan har bir huquqiy masalani o'quvchi tomonidan tezroq o'zlashtirish imkonini beradi. Asarda yoritilgan barcha huquqiy masalalar yuqorida ta'kidlangan tartibda bayon etilgan.

Abu Xafs Nasafiyning muhokama qilinayotgan aqidaviy masala yuzasidan fikri tugallangandan so'ng, Taftazoniyning mazkur masala yuzasidan sharhi boshlanadi.

Nasafiyning «sultonga qarshi bosh ko'tarib chiqilmaydi» rukni ostidagi fikrlari Taftazoniy tomonidan quyidagicha sharhlanadi.

وعن زياد العدوي التابعي، قال: كنت مع أبي بكر
تحت منبر ابن عامر، وهو يخطب، وعليه ثياب رقاق، قلت: انظروا إلى أميرنا يلبس ثياب الفساق، فقال
أبو بكر: اسكت، سمعت رسول الله ﷺ يقول: "من أهان سلطان الله في الأرض أهانه الله" (رواه الترمذي،
وحسنه) [النيراس: ٣٢٣]

Mazmuni:

¹ Саъдуддин Тафтазоний. Шарҳ ал-ақоид ан-Насафий. -Карачи: Мактабат ул-бушро, 2009 йил 1-нашр. –Б.367-368. - 367-368.صفحة، الاولى طبعة ميلادي، ٢٠٠٩، البشرى مكتبة، باكستان، كراتشي، العقائد شرح، تفتزاني الدين سعد -

«O'tgan solih kishilar ishboshilarga itoat qilishlik aqidasiga ham qalban, ham jismonan bo'ysunishar edi va bunga naqliy dalil keltirishgan: «Tobeiynlardan bo'lgan Ziyod al-Adaviy aytadilar: Abu Bakra bilan birga Ibn Omir huzurida edik, u yomon kiyimlarini kiyib, odamlarga xutba qilar edi. Shu paytda men, «Amirimizga qaranglar, u fosiqlarning kiyimini kiyib olgan», -deb aytdim. U: «Jim bo'l!»,-dedi. Men Rasululloh (s.a.v)ni: «Kim Allohning yerdagi sultonini xor qilsa, Alloh uni xor qiladi», deganlarini eshitganman dedilar».²

Mutafakkirlarning yuqorida ta'kidlangan qarashlardagi analogik tahlilda Abu Xafs Nasafiy bir vaqtning o'zida huquqiy (fiqhiy) masalani bayon qilish bilan birga, o'sha zamon va makonda faoliyat yuritgan xavorijlar firqasining mazkur huquqiy masalaga bo'lgan munosabatini raddiya shaklida ifodalaganligini ko'rishimiz mumkin.

«Sultonga qarshi bosh ko'tarib chiqilmaydi» deb nomlanuvchi dialektik mavzu yuzasidan yuqorida bayon etilgan qarashlarni naqliy dalillardagi bayonini keltirishga harakat qildik.

Naqliy dalillarning avvali bo'lgan Qur'oni Karimning Niso surasi 59-oyatida: «Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat qiling, payg'ambar va o'zingizdan bo'lgan ishboshilarga itoat qiling. Biror narsa haqida tortishib qolsangiz, agar Alloh va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsangiz, uni Allohga va payg'ambarga qaytaring. Ana shunday qilish xayrli va oqibati yaxshidir»³. Qur'oni karimning mazkur oyatlarida Yaratuvchining insoniyat jamoasiga itoat qilish masalasidagi hukmlarning ilohiy va insoniy bosqichlarini tushuntiradi. Shuningdek, mutafakkir axloqiy qarashlaridagi hurmat va tavoze kabi sharqona fazilatlar murosasozlikni yuksak namunasi sifatida yuqoridagi jummalarga kompensatorlik vazifasini bajaradi.

Amr ibn Osdan rivoyat qilingan hadisda payg'ambarimiz (s.a.v.) «Kimki rahbarga chin ko'ngildan qo'l berib, bay'at qilsa, toqati yetgunicha itoat qilsin»⁴. Rahbarga itoatsizlik esa, jamiyat ijtimoiy barqarorligiga rahna soluvchi, jamoa a'zolari orasida destruktivlikni targ'ib qiluvchi omil sifatida e'tirof etiladi.

Demak, har bir fuqaro o'z zimmasidagi huquq va majburiyatlarni ado etishda, biror masala yuzasidan nizolashayotgan odamlar orasida adolat bilan hukm yuritishda

² Саъдуддин Тафтазоний. Шарҳ ал-ақоид ан-Насафий. -Карачи: Мактабат ул-бушро, 2009 йил 1-нашр. –Б.367. -
صفحة:367، الاولى طبعة ميلادي، ٢٠٠٩، البشرى مكتبة، باكستان، كراتشي، العقائد شرح، تفتراني الدين سعد

³ Шайх Абдулазиз Мансур. «Куръони карим» ўзбек тилидаги маънолари таржимаси. –Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2006 йил.

⁴ Айдарбек Тўлепов. Ислом ва ақидапараст оқимлар. -Тошкент: Шарқ НМАК, 2013 й. –Б.119.

va boshqa ishlarda, avvalo, «Yaratuvchiga itoat, soʻngra paygʻambar (s.a.v.)ga itoat, keyin ishboshilarga itoat etmogʻi lozim»⁵.

Mazkur axloq normasini nazariy tahlil qiladigan boʻlsak, muayyan jamiyatda yashovchi har bir fuqaroning boʻysunishi lozim boʻlgan uch koʻrinishdagi ijtimoiy holati haqida gap boradi.

Yuqorida taʼkidlangan tushunchalarning falsafiy tahlili shundan iboratki, naqliy dalildagi birinchi itoat, oʻzining «men»ini anglab yetgan aql-idrokli fuqaroda vijdon tuygʻusi shakllanadi va bu tuygʻu kundalik turmushi davomida moddiy va maʼnaviy ehtiyojlarini qondirishga qodir boʻlgan yagona zot – Yaratuvchi ekanligini anglaydi. Bunday holatda Yaratuvchiga itoat etish jarayoni insonga majburiyat hissiga nisbatan koʻproq ertangi kunga umid va ishonch tuygʻusini baxsh etadi.

Yaratuvchiga itoat qilish uning ilohiy kitobi – Qurʼoni karimga amal qilish bilan sodir boʻladi.

Naqliy dalilda keltirilgan ikkinchi koʻrinishdagi itoat haqida tarixiy davr nuqtai nazaridan fikr yuritsak, Muhammad (s.a.v.)ning sunnatlariga amal qilib yashash komillikka erishuvning asosiy tamoyili ekanligini anglab yetamiz. Komil inson maqomi esa, biz erishishimiz kerak boʻlgan pirovard natija, yaʼni huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy manbaini tashkil etadi.

Manbada taʼkidlangan dastlabki ikki holatdagi itoat tarixiy davr kontekstida jamiyat yoki jamoa uchun hech qachon salbiy oqibat olib kelmagan, aksincha, har ikkala holatdagi boʻysunishning elementlari boʻlgan vijdon amri, halollik, poklik, oʻzaro hurmat, insonlarning bir-biriga yaxshilik qilishi kabi amallar ijtimoiy muhitda insonlarda pozitiv kayfiyat, davlat va jamiyatning barcha strukturasida taraqqiyotga olib boruvchi omil boʻlib xizmat qilgan.

Izohlanayotgan «ishboshi» soʻzi, zamonaviy istilohda tahlil qilinadigan boʻlsa, jamiyatning har bir strukturasidagi rahbar va uning qoʻl ostida boʻlgan xodim oʻrtasida vujudga keladigan altruistik tushunchalarni toʻgʻri shakllantirilishi bilan bogʻliq holda oʻrganiladi. Bunda insof va adolat, hallolik va diyonat, oriyat, oʻzganing haqqiga xiyonat qilmaslik, insonlarning dardini tinglay bilish kabi ahloqiy fazilatlar har qanday jamoa rahbarining asosiy quroli boʻlmogʻi kerakligi uqtirilgan.

Gumanistik gʻoyalarni targʻib qiluvchi asarlarda har bir ishboshining faoliyati jarayonida biror masalada ixtilof paydo boʻlib nizo kelib chiqsa, naqliy dalillarning avvali boʻlgan Qurʼoni Karimga va paygʻambar (s.a.v.) hadislariga murojaat qilishlik adolatning eng yuksak namunasi ekanligi taʼkidlanadi. Agar bu qoidaga rioya

⁵ <https://scholar.google.ru/scholar?oi=bibs&cluster=14072417986882936351&btnI=1&hl=ru>

etilmasa, muammoni o'zicha hal qilinishiga erk berilsa, jamiyatda tartib-intizom buziladi, har bir insonning aqliy qobiliyati va fikrlash darajasi turlicha bo'lganligi sababidan turlicha ko'rinishdagi ziddiyatlar kelib chiqadi. Bu esa jamiyatda parokandalik, boshboshdoqlikni keltirib chiqaradi va davlatning tanazzuliga olib keladi.

Bunday salbiy holatlar natijasi o'laroq, birinchidan, islom falsafasi va kalom ilmi insonlarni doimo izlanuvchan, jamiyatda paydo bo'ladigan turli ko'rinishdagi muammolar yuzasidan hozirjavob bo'lishga chorlaydi. Ikkinchidan, islom falsafasi har qanday zamon va makonda yuzaga keladigan turli muammolarga to'g'ri yechim topish imkonini beradi. Uchinchidan, agar Qur'oni Karimda ham, Hadisda ham analogiyasi mavjud bo'lmagan masala yuzasidan yechim zaruriyati paydo bo'lsa, bu masalaning yechimi ishboshilarga havola qilinadi.

Ko'pchilik nazdida «ishboshi» deganda muayyan ma'nodagi rahbar qiyofasi namoyon bo'ladi. Bunday holatda masalaga biryozlama yondashuv mantiqiy xatolikni keltirib chiqaradi. Islom ulamolari Qur'oni Karim oyatidagi «ishboshi»larni shunday tushuntirganlar: islom huquqida ijtihod, ya'ni muayyan kalomiy masalaga javob topa olish darajasiga yetgan olimlarning jamlanib, qaror qabul qilishlari ishboshilikdir. Shu jihatlarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, qaroriga bo'ysunishlik lozim bo'lgan har bir struktura rahbari ham ishboshi hisoblanadi.

Boshqaruvda «ishboshi»larning roli masalasini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, jamiyat hayotiga tatbiq qilishni maqsad qilar ekanmiz, istiqbolli rahbar kadrlarni tayyorlash tizimi har kungidan ko'ra dolzarb tus olganligini alohida ta'kidlash lozim. Bu jarayon davlatimiz ichki siyosatining muhim masalasiga aylandi. Jamiyat hayotining muayyan sohasidagi mavjud muammolar hamda ularning amaliy yechimlarini topishda Sa'duddin Taftazoniy asarida ta'rifi keltirilgan «ishboshi»lar zimmasiga bir qator burch va majburiyatlarni yuklaydi. Mazkur majburiyatni ado etish uchun «eng avvalo, rahbardan aql-idrok talab etiladi. Aql idrokli bo'lish bilan bir qatorda rahbar odam mustahkam irodali, iymoni butun, oriyatli bo'lishi bilan shart. U bag'rikeng, ayni zamonda talabchan bo'lishi shart»⁶, -deya ta'kidlagan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov.

Bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy va huquqiy sohadagi islohotlarimizning samarasi o'laroq, mamlakatimizda o'zining shaxsiy fikri, qarashlari va sohaga nisbatan kreativ yondashuviga ega bo'lgan zamonaviy «ishboshi»larni mas'uliyatli lavozimlarga tayinlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Rahbar kadrlar ongida mutafakkirlar ma'naviy merosi va zamonaviy bilimlarni uyg'unlashtirish

⁶ Каримов И.А. Биздан озоd ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. –Т: Ўзбекистон, 1996. –Б.123

bugungi kunning ob'ektiv zaruriyatidir. Bu esa siyosiy yetakchilik jarayonining shakllanishiga fundamental ahamiyat kasb etadi. Bu masalada siyosiy yetakchi davlatning barqaror taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadigan, davlatning siyosiy hayotiga, nuqtai nazariga salmoqli ta'sir ko'rsata oladigan ijtimoiy hayot ideal obrazining ma'naviy qiyofasini shakllantira oladigan, har tomonla yetuk siyosatdonlar faoliyati tadqiqotning ilmiy mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy «ishboshi»larning ijtimoiy-ma'naviy va axloqiy qiyofasini shakllantirish hamda boshqaruv tizimida adolat tamoyillarining ustuvorligini ta'minlash borasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev shunday ta'kidlaydi: «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar... faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak»⁷.

Yangicha dunyoqarashga ega bo'lgan zamonaviy «ishboshi»larda axloqiy fazilatlarni shakllantirish va ularning ijtimoiy adolat ijrosini ta'minlash jarayonida ijobiy natijalarni qo'lga kiritayotganligiga zamon nuqtai nazaridan guvohi bo'lmoqdamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv Akademiyasi bu borada jonbozlik ko'rsatib kelmoqda.

Yuqorida ta'kidlangan jihatlarni inobatga olganimizda, «ishboshi»larda zamonaviy boshqaruv salohiyatini shakllantirishda va ular ongiga milliy qadriyatlar ruhini singdirishda Sa'duddin Taftazoniyning konseptual qarashlari ma'lum ma'noda nazariy manba vazifasini bajaradi.

Tarixiy davr tendensiyasidagi islomiy bilimlar va zamonaviy qarashlarning dalillaridan kelib chiqadigan umumiy xulosa shuki, mutafakkir Taftazoniyning ilmiy merosini chuqur tadqiq etish, uni mamlakatimizdagi bugungi demokratik islohotlar jarayoniga izchil tatbiq qilish, ma'naviy meros sintezi asosida o'zlashtirilgan bilimlarni insoniyat kamoloti uchun yo'naltirish masalasi tadqiqotchi olim va faylasuflar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Buyuk mutafakkir Taftazoniy siymosida, bugungi kunda biz qurayotgan fuqarolik jamiyatining tarixiy asoslarida uning aql-idroki, tafakkur tarzi va islom ilmlari haqidagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda Taftazoniy asarlaridagi g'oyalarni davlat va jamiyat taraqqiyotida mamlakat rahbarining roli hamda ahamiyatini yorqin dalillar asosida ko'rsatib bergan bugungi zamon olimlarining fikrlari bilan qiyosiy tahlil qildik.

⁷ Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалиқ қоидаси бўлиб қолиши керак. –Т.: Ўзбекистон. 2017. –б.6

«Davlat boshlig‘ining dono siyosati va qat‘iyati mamlakatni chuqur tanglikdan olib chiqqan... Chunki davlat boshlig‘i oqilona siyosat yuritganida mamlakatning boyligiga boylik qo‘shish, mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, uni obru-e‘tiborli davlatga aylantirish mumkin».⁸

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Taftazoniyning «Sharh al-aqid» asarida «sultonga qarshi bosh ko‘tarib chiqilmaydi» mavzusi jamiyatda paydo bo‘ladigan muayyan masalalarni hal qilish vakolatiga ega bo‘lgan shaxslarning o‘z vazifalariga nisbatan adolat va insof bilan yondashuvi hamda buning natijasida jamiyat a‘zolari orasida tinchlik-totuvlik, murosasozlik, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat ruhidagi hamkorlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni yuksaltirishda nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kezi kelganda shuni ham alohida qayd etish kerakki, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning xalq va davlat manfaati yo‘lida olib borayotgan pragmatik siyosati alohida e‘tirofqa loyiq. Birgina «xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilish kerak»⁹ shiori ostidagi konseptual tamoyili bo‘yicha rahbarlarning aholi oldida hisobot berish tizimining joriy etilishi, mutafakkir Taftazoniy asaridagi «ishboshi»larning boshqaruv sohasidagi insoniy va kasbiy sifatleri haqidagi iqtibosining amaliy namunasi. Bu esa Taftazoniy asarlarining asrlar osha o‘zining rasional tafakkur bobidagi ma‘rifiy ahamiyatini yo‘qotmaganligidan dalolat beradi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lib qolishi kerak. –T.: O‘zbekiston. 2017. –B.6.
2. Gafarli M. S., Kasaev A. Ch. Rivojlanishning o‘zbek modeli: tinchlik va barqarorlik – taraqqiyot asosi. -T.: «O‘zbekiston», 2001, -B.23.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2017.22.12.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. –T: O‘zbekiston, 1996. –B.123.
5. Sa‘duddin Taftazoniy. Sharh al-aqid an-Nasafiy. -Karachi: Maktabat ul-bushro, 2009 yil 1-nashr. –B.367-368. - تفتزاني الدين سعد ، العقائد شرح ، كراتشي ، باكستان ، مكتبة ، 2009 ميلادي ، البشرية 367-368:صفحة ، الاولى طبعة

⁸ Гафарли М. С., Касаев А. Ч. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик – тараққиёт асоси. -Т.: «Ўзбекистон», 2001, -Б.23.

⁹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 2017.22.12.

6. <https://scholar.google.ru/scholar?oi=bibs&cluster=14072417986882936351&btnI=1&hl=ru>
7. Shayx Abdulaziz Mansur. «Qur'oni karim» o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimasi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006 yil
8. Aydarbek To'lepov. Islom va aqidaparast oqimlar. -Toshkent: Sharq NMAK, 2013 y. –B.119.